KUCH ADOLATDADIR Amir TEMUR

ADOLAT MEZONI

GAZETA 2010-YIL 3-MAYDAN CHIQA BOSHLAGAN // HUQUQIY-IJTIMOIY VA MA'NAVIY-MA'RIFIY GAZETA // ISSN 2181 - 483X WWW.ANDIJONSADOSI.UZ // № 36 (566) 2025-YIL, 27-AVGUST

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 34 yilligi oldidan

«VATAN UCHUN, MILLAT UCHUN, XALQ UCHUN!»



O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 34 yilligi oldidan Markaziy bank Andijon viloyat bosh boshqarmasi O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi Andijon viloyat bo'limi bilan hamkorlikda "Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!" degan hayotbaxsh g'oya ostida bayram tadbiri tashkil etildi.

Unda bosh boshqarma xodimlari, bo'lim boshliqlari va texnik xodimlar ishtirok etdi.

Markaziy bank Andijon viloyat bosh boshqarmasi boshlig'i A.Rahmonberdiyev tadbirni ochib, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar xalqimiz manfaatlarini ta'minlab, inson qadrini ulug'lashga xizmat qilayotgani, mahalla va qishloqlarimiz yangi qiyofada bo'y ko'rsatib, odamlarning bugungi hayotidan rozi bo'lib yashashi uchun barcha sharoitlar yaratilayotganini ta'kidladi.

O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi Andijon viloyat bo'limi raisi M.Artiqova "Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!" deya yangragan shior xalqimizning har bir vakiliga qarata yo'llangan xitob bo'lib, Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lidagi hamjihatligimizga yangi kuch-quvvat bag'ishlayotganini aytib o'tdi.

O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a'zosi, "Aktual.tv. media" MCHJ rahbari Abduvali Qurbonov bank sohasida olib borilayogan islohotlarni, qolaversa mijozlar huquq va manfaatlariga rioya etish hamda xizmat ko'rsatish madaniyatini yuksalishi bank tizimiga bo'lgan ishonchini yanada oshirishga xizmat qilayotganligini qayd etdi.

Tadbir yakunida bayram munosabati bilan tizimda samarali, halol va yuksak mehnati bilan hamkasblariga o'rnak bo'lib kelayotgan bir guruh xodimlar "Faxriy yorliq" va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

-Mana 34 yildirki bu bayramni xalqimiz ko'tarinki kayfiyat, ulkan yutuqlar bilan qarshi oladi. Bunda albatta bank sohasi xodimlarini ham hissasi beqiyos ekanligini alohida ta'kidlab o'tish joiz. Bayram arafasida kamtarona mehnatim rahbariyat tomonidan e'tirof etilganidan minnatdorman, - dedi taqdirlangan Nargiza Haydarova.

D.ABDUMAJIDOVA,
"Adolat mezoni"
muxbiri.



"Eng ulug', eng aziz!" tanlovi

Andijonda mamlakatimiz mustaqilligining o'ttiz to'rt yillik bayramiga bag'ishlangan "Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!" shiori ostida an'anaviy "Eng ulug', eng aziz!" tanlovining viloyat bosqichi g'olib va sovrindorlarini taqdirlashga bag'ishlangan tadbir bo'lib o'tdi.

ANDIJONLIK IJODKORLAR TAQDIRLANDI





Tanlovda bosma ommaviy axborot vositalari, internet jurnalistikasi vakillari, televideniye va radio ijodkorlari, shoir va yozuvchilar, publitsist ijodkorlar, shuningdek, musavvir, xalq amaliy san'ati vakillari, fotograf va dizaynerlar hamda kino ijodkorlari tomonidan taqdim etilgan 400 dan ziyod ijodiy ishlar ko'rib chiqildi.

Tadbir ishtirokchilariga O'zbekiston Oliy Majlisi huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan moliyalashtirilgan "Adolat mezoni" gazetasining "Korrupsiyasiz jamiyat – taraqqiyot kafolati" nomli loyihasi doirasida maxsus sahifasi chop etilgan 34-soni bepul tarqatildi.

Yakunda barcha nominatsiyalar bo'yicha g'olib va sovrindorlarga diplom hamda esdalik sovg'alari topshirildi.

V. AXMADXONOV,
tanlov hakamlar hay'ati a'zosi.

Davra suhbati

HAMKORLIKNING DOLZARB MASALALARI

ANDIJONDA "MUSTAQILLIK YILLARIDA OCHIQ FUQAROLIK JAMIYATI VA OAV FAOLIYATINI YANADA RIVOJLANTIRISHDA O'ZARO HAMKORLIKNING DOLZARB MASALALARI" MAVZUSIDA DAVRA SUHBATI BO'LIB O'TDI.

Mamlakatimiz mustaqilligining o'ttiz to'rt yillik to'yi oldidan "Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!" shiori ostida Andijon viloyat hokimligi, Demokratik jarayonlarni tahlil qilish markazining Andijon viloyati hududiy bo'linmasi hamda O'zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi viloyat hududiy bo'linmasi hamkorligida tashkil etilgan davra suhbatida viloyat adliya boshqarmasi, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati boshqa institutlari rahbarlari, faollari, ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi.

Davra suhbatida mustaqillik yillarida nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyati boshqa institutlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash, mazkur sohani yanada rivojlantirish, amalga oshirilayotgan loyihalar, bu boradagi ilg'or tajribalar, erishilayotgan yutuqlar xususida atroflicha so'z yuritildi.

–Keyingi yillarda mamlakatimizda nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari faoliyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi, – deydi Demokratik jarayonlarni tahlil qilish markazi Andijon viloyat hududiy bo'linmasi rahbari Farhodbek Otaxonov. – Ta'kidlash joizki, ularning faoliyati davlat boshqaruv idoralari, xususan, keng jamoatchilik tomonidan ijobiy e'tirofini topmoqda. Ana shu jarayonlarni yoritish, targ'ib etishda ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik ham ijobiy samaralar bermoqda.

Yangi O'zbekiston sharoitida ularning faoliyati samaradorligini oshirish, hamkorligini yanada mustahkamlash muhim masalalardan biri hisoblanadi. Davra suhbatini o'tkazishdan ko'zlangan asosiy maqsad ham ana shu masalani atroflicha muhokama qilish, aniq taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Davra suhbatida so'z olgan viloyat hokimligi kotibiyat mudiri Doniyorbek Hamroqulov, O'zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi viloyat hududiy bo'linmasi rahbari Sherzodbek Valiyev, Demokratik jarayonlarni tahlil qilish markazining Andijon viloyat hududiy bo'linmasi bosh mutaxassisi Adhamjon Uzoqjonov, O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi viloyat bo'limi rahbari Maxpuraxon Artiqova va boshqalar tomonidan mustaqillik, ayniqsa, keyingi yillarida O'zbekistonda ochiq fuqarolik jamiyatining huquqiy poydevorini mustahkamlashga qaratilgan 200 dan ortiq qonun va qonunosti hujjatlari qabul qilinib, sohaning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirishga xizmat qilayotganligi ta'kidlandi. Shuningdek, amalga oshirilgan islohotlar, NNTlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibini soddalashtirish, ular faoliyatiga ortiqcha aralashuvlarga chek qo'yish, davlat tomonidan subsidiya, grant va ijtimoiy buyurtmalar ajratish orqali moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimining shaffofligi ta'minlanayotganligi qayd etildi.



Davra suhbati ishtirokchilari fuqarolik jamiyati institutlari va OAV o'rtasidagi hamkorlikning asosiy yo'nalishlari – ta'sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish, islohotlar ochiqligini ta'minlash hamda aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish borasidagi tushuntirish, targ'ibot ishlarini kuchaytirish, mazkur yo'nalishdagi ishlarni yanada yuqori bosqichga ko'tarish yuzasidan taklif, fikr va mulohazalar bildirdi.

Davra suhbatida muhokama etilgan masalalar yuzasidan hamkorlikni yanada kuchaytirishga qaratilgan aniq taklif va amaliy tavsiyalar ilgari surilib, kelgusida amalga oshirilishi zarur vazifalar belgilab olindi.

Tadbir yakunida samarali faoliyat yuritayotgan bir guruh nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari vakillari viloyat hokimligining tashakkurnoma va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

F. UBAYDULLAYEV,
Z. UMRZOQOV (surat),
O'zA muxbirlari.

«KORRUPSIYASIZ JAMIYAT – TARAQQIYOT KAFOLATI

O‘zbekiston Oliy Majlisi huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan moliyalashtirilgan «Adolat mezoni» gazetasining «Korrupsiyasiz jamiyat - taraqqiyot kafolati» loyihasi doirasidagi sahifa

HALOLLIK YO‘QOLGANDA – JAMIYAT YEMIRILADI

Korrupsiya – bu faqatgina pora berish yoki olish emas, balki jamiyatning eng katta illatlaridan biridir. U hayotimizning deyarli barcha jabhalariga kirib borgan, odamlarning ishonchini yemiradigan, adolatni yo‘q qiladigan illatdir. Illatning mohiyati shundaki, kimdir o‘z manfaati uchun qonunni, tartibni buzadi va buning evaziga jamiyat zarar ko‘radi.



Korrupsiya nimadan boshlanadi?

Ko‘pchilik korrupsiyani faqat katta rahbarlarning ishi deb o‘ylaydi. Ammo aslida u juda oddiy narsalardan boshlanadi. Kimdir o‘qishini ko‘chirish uchun pul berdi – bu ham korrupsiya. Kimdir do‘konchidan navbatni pulga sotib oldi – bu ham korrupsiya. Kimdir tanishi orqali ishlashga kirib, haqiqatdan ishlashga loyiq odamni siqib chiqardi – bu ham korrupsiya. Mana shu kichik-kichik illatlar yig‘ilib, katta muammoga aylanadi. Shu sababli ham korrupsiyani yengish uchun avval o‘zimizni tuzatishimiz shart.

Korrupsiya – bizning tanlovimizmi?

Ha, bu tanlov. Har birimizda ikki yo‘l bor: to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri yo‘l. Noto‘g‘ri yo‘l ko‘rinishda foydali bo‘lishi mumkin: pul berasan va natija olasan. Lekin uzoq muddatda bu jamiyatni yemiradi. To‘g‘ri yo‘l esa mashaqqatli, lekin kelajagi porloq. Agar bugun o‘zing halol bo‘lsang, ertaga farzanding ham shu yo‘ldan yuradi. Agar bugun “pul bilan hammasi hal bo‘ladi” degan fikrni singdirsak, ertaga shu farzand davlatning boyligini yeb bitiradi.

Jamiyat – bu ulkan daraxt. Uning ildizi – halollik, tanasi – adolat, shoxlari – mehnat, mevalari esa – taraqqiyot va farovonlikdir. Agar daraxt ildizidan zararlansa, uning butun tanasi quriydi, shoxlari sinadi, mevalari chiriydi. Korrupsiya ham ana shunday illatki, u jamiyat daraxtini ichidan kemiruvchi, ko‘zga ko‘rinmaydigan, ammo kundan-kunga kuchayib boradigan hasharotdir. Korrupsiya haqida ko‘p gapiriladi: u davlatni zaiflashtiradi, iqtisodiyotga zarar yetkazadi, taraqqiyotni sekinlashtiradi. Ammo uning eng katta ofati – inson qalbini buzishi, jamiyatning ruhiy poydevorini yemirishidir. Halollik qadrsizlangan, adolat so‘ngan, ishonch yo‘qolgan jamiyat qanday qilib kelajakka ishonch bilan qaray oladi? Shu bois bu maqolada korrupsiya haqida quruq raqam va qonunlar emas, balki uning jamiyat hayotiga qanday ta’sir qilishi, insonlar ongini qanday buzishi, yoshlarning kelajagini qanday so‘ndirishi haqida badiiy nigoh bilan so‘z yuritamiz.

Korrupsiya – adolatni so‘ndiruvchi qora bulut

Tasavvur qiling, osmon charog‘on, quyosh porlab turibdi. Bolalar quvonib o‘ynashmoqda, dehqonlar dalada mehnat qilmoqda, o‘qituvchilar maktabda dars bermoqda. Birdan osmonda qora bulut paydo bo‘ladi. U asta-sekin kengayib, quyosh nurlarini to‘sadi. Odamlar endi issiqni emas, sovuqlikni his qiladilar. Korrupsiya ham jamiyat ustida yoyilgan qora bulutdir. Adolat bo‘lmagan jamiyatda insonlar kelajakka ishonmaydi. Halol mehnat qilgan odam chetda qolib, pora bergan odam yuqoriga chiqsa, bu jamiyatda adolat emas, kuch va pul hukmron bo‘ladi. Ana shu holat odamlarni befarq, sovuqqon va loqayd qiladi.

Korrupsiya va yoshlar ongidagi iztirob

Yoshlar – jamiyat kelajagi, deyishadi. Ammo korrupsiya yoshlarning qalbiga shunday zahar soladiki, ularning kelajakka bo‘lgan umidini so‘ndiradi. Bir tasavvur qiling: bir yigit bor, u butun umr kitob o‘qidi, ilm oldi, tinmay mehnat qildi. U orzu qiladi: “Bilimim bilan jamiyatga foyda keltiraman, yuqori lavozimga halol mehnat bilan chiqaman.” Ammo bir kuni ko‘radi: uning yonidagi tengdoshi hech qanday bilimga ega bo‘lmasa-da, birgina tanishi yoki pul tufayli yuqori mansabni egallabdi. Bu holat halol yigitning qalbini sindiradi. “Nahotki bilim emas, pul va tanish hamma narsani hal qilsa?” – degan iztirob uni qiynay boshlaydi. Mana shunday vaziyatda yoshlarning katta qismi ikki yo‘ldan birini tanlaydi: yoki befarqlikka beriladi, yoki korrupsiyaga qo‘shilib ketadi. Bu esa jamiyat kelajagini yanada qorong‘i qiladi.

Korrupsiya – ishonchni yemiruvchi zahar

Jamiyatning eng katta boyligi – ishonchdir. Odamlar bir-biriga, davlat idoralariga, qonunlarga ishongan jamiyatda barqarorlik bo‘ladi. Ammo korrupsiya bu ishonchni asta-sekin yemiradi. Agar fuqaro hujjatini olish uchun pora bermasa, yillab navbat kutishi kerak bo‘lsa, u davlatga ishonmaydi. Agar bemor shifokorga pora bermasa, dori-darmonini vaqtida ololmasa, u tibbiyot tizimiga ishonmaydi. Agar talaba bilim bilan emas, pul bilan o‘qishga kiritilsa, u ta’limga ishonmaydi. Natijada butun jamiyatda ishonchsizlik muhiti paydo bo‘ladi. Odamlar qonunni emas, pulni ustuvor deb biladi. “Halol mehnat qilishdan foyda yo‘q” degan qarashlar kuchayadi. Bu esa jamiyatni asta-sekin ichidan yemiradi.

Korrupsiyaning ma’naviy ildizlari

Korrupsiya faqat moddiy muammo emas, u ma’naviy tanazzul mahsulidir. Halollik, vijdon, adolat – bular jamiyatni tutib turadigan ko‘rinmas ustunlar. Agar bu ustunlar qulab tushsa, jamiyatning binosi ham yiqiladi. Qadim donishmandlar aytgan: “Jamiyatni kuchli qiluvchi narsa – qonun emas, balki odamlardagi halollikdir.” Qonun qog‘ozda qolib, odamlar halollikni unutsa, eng mukammal qonun ham ishlamaydi. Shu sababli korrupsiyaga qarshi kurashni faqat jazolash orqali emas, balki halollikni qadrlash, yoshlar ongiga vijdon va adolatni singdirish orqali amalga oshirish zarur. Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashdagi o‘rni korrupsiya faqat davlat organlari bilan emas, balki butun jamiyatning birdamligi bilan yengiladi.

O‘qituvchi halollikni bolaga singdirsa – u ertaga poraxo‘r bo‘lmaydi.

Ota-ona farzandini adolatli bo‘lishga o‘rgatsa – u kelajakda davlatni sotmaydi.

OAV poraxo‘rlikni fosh etsa – odamlar hushyor bo‘ladi.

Har bir fuqaro “men pora bermayman” desa – tizim asta-sekin tozalanadi. Demak, jamiyatning eng katta kuchi – halollikka bo‘lgan umumiy intilishdir.

Badiiy tasvir: Korrupsiya va Daraxt

Bir bog‘bon bo‘lardi. U yillar davomida bog‘ yaratdi, daraxt ekdi, gullar parvarish qildi. Ammo bir kuni daraxtlardan biri quriy boshladi. Barglari sarg‘aydi, shoxlari sinib ketdi. Bog‘bon tashvishga tushdi: “Nega bu daraxt quridi?” Keyin qarasa, daraxtning tagida kichkina hasharot paydo bo‘lgan ekan. U daraxt ildizini kemirayotgan ekan. Bog‘bon kech tushundi: daraxt tashqaridan sog‘lom ko‘rinsa-da, ichidan yemirilib borayotgan ekan.

Jamiyat ham xuddi shunday. Agar korrupsiya ildizi chuqurga kirsa, jamiyat tashqaridan mustahkam ko‘rinsa ham, ich-ichidan yemirilib ketadi. Xulosa qilib aytganda, Korrupsiya – jamiyatni ichidan yemiruvchi, halollik va adolatni so‘ndiruvchi, ishonchni buzuvchi ko‘rinmas illatdir. Uning asl sababi – insonning ochko‘zligi, halollikni qadrsizlanishi va jamiyatning bunga ko‘z yumishidir. Korrupsiyaga qarshi kurash – faqat qonun bilan emas, balki qalblarda halollikni uyg‘otish bilan amalga oshadi. Jamiyat har bir a’zosi “men halol bo‘laman” desa, korrupsiya ildiz otmaydi. Jamiyatning kelajagi shundaki, u o‘z ariqlarini tozalab, suvini yana musaffo qila bilishi kerak. Musaffo suv hayot beradi, halollik esa jamiyatni tiriltiradi.

Dilraboxon MA’MUROVA.

Korrupsiyasiz dunyo qanday bo‘lishi mumkin edi?

Bir tasavvur qiling: dunyoda korrupsiya yo‘q. Haqiqiy muhtojga yordam beriladi, ishga eng malakali kadr olinadi. Yo‘llarimiz mustahkam, shifoxonalarimiz bepul va sifatli, o‘qituvchilar oyligi vaqtida va yetarli. Oddiy oilaning farzandi ham orzu qilgan kasb egasiga aylanishi mumkin. Bu orzumi? Yo‘q, bu haqiqat – Singapur bunga erishdi.

Singapur – halollikning kuchi

1960-yillarda Singapur bizdan ham kambag‘al edi. Ishsizlik, jinoyatchilik, korrupsiya – hammasi bor edi. Lekin ular qat’iy qaror qildi: korrupsiyani ildizi bilan yo‘q qilish. Qonun oldida hamma teng bo‘ldi. Mansabdor pora olsa – jazolandi. Fuqaro pora taklif qilsa – jazolandi. Bugun Singapur dunyoning eng boy, eng tartibli mamlakatlaridan biri. Bu nimani ko‘rsatadi? Agar biz ham halollikka intilsak, bizning kelajagimiz ham yorqin bo‘lishi mumkin.

Korrupsiyaning bizga ta’siri

Korrupsiya – ko‘zga ko‘rinmas dushman. U har kuni hayotimizni yomonlashtiradi. Misol uchun, biror ko‘prik qurishga davlat katta mablag‘ ajratadi. Mablag‘ning yarmi o‘g‘irlanadi, qolgan yarmi arzon materialga ketadi. Natijada ko‘prik ikki yilda qulaydi. Bu baxtsiz hodisalarga, odamlarning o‘limiga sabab bo‘ladi. Yoki shifoxonaga borasiz – pulingiz bo‘lmasa, e’tibor ham berishmaydi. Bu adolatmi? Albatta, yo‘q.

Hayotiy misol – bo‘lgan voqea. Viloyatimizdagi oliy ta’lim muassasalaridan birida rahbar bo‘lib ishlaydigan Sa’dulla aka degan kishi bir ota-onaga: “Farzangizni o‘qishga kiritib qo’yaman,” deb ularni ishontiradi va soddaligidan foydalanib, katta miqdorda pora oladi. Ammo ishni oxiriga etkazmay turib, pora bilan tushadi. Bechora ota-onaning orzulari chilparchin bo‘ldi. Bu kabi voqealar oz bo’lsa-da yuz beradi.

Xulosa

Korrupsiya – jamiyatni yemiradigan illat. Unga qarshi kurashish faqat hukumatning ishi emas, balki har birimizning vazifamiz. Biz halol bo‘lsak, bolamizga halollikni o‘rgatsak, jamiyatimiz o‘zgaradi. Shundagina biz ham Singapur kabi rivojlangan, adolatli davlatga aylanishimiz mumkin. Halollik – bu faqat so‘z emas, bu kelajakning poydevori.

Dilchehra ANVARJONOVA.

KORRUPSIYA – JAMIYATNI YEMIRUVCHI KO‘RINMAS ILLAT

Ijtimoiy ta’minot

NOGIRONLIK PENSIYALARI ALOHIDA MUROJAAT TALAB ETMASDAN «PROAKTIV» SHAKLDA TAYINLANADI



Mamlakatimizda pensiya oluvchilar va nogironligi bo‘lgan shaxslarning ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini yanada kengaytirish maqsadida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Joriy yilning 1-martidan boshlab pensiya yoshiga yetgan fuqarolarga ayollar 55 yosh, erkaklar 60 yoshga to‘lganda proaktiv shaklda pensiya tayinlash tizimi joriy qilindi. Bunda fuqaro pensiya yoshiga yetgunga qadar hozirgi kunda faoliyati to‘xtagan bo‘lsa mehnat daftarchadagi yozuvlarini Bandlikka ko‘maklashish markazlari orqali raqamlashtirishlari, Oila tarkibi ma’lumotlarini FHDYO organlariga murojaat qilish orqali shakllantirib berilishi kerak bo‘ladi. Hozirgi kunda faoliyat yuritayotgan fuqarolar ishlayotgan tashkilotning kadrlar bo‘limiga murojaat qilib avvalgi va hozirga qadargi faoliyatini raqamlashtirishlari lozim.

Ushbu tizimni yo‘lga qo‘yishdan asosiy maqsadlardan biri fuqaro bilan xodim munosabatidagi korrupsion holatlarni, korrupsion xarakterdagi talablarni oldini olish hisoblanadi.

Keyingi bosqichda 2025-yil 27-may kuni “Nogironlik pensiyalari va kompensatsiyalarini proaktiv shaklda tayinlash hamda aktiv xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish to‘g‘risida” Prezident qarori qabul qilindi.

Qarorga ko‘ra, 2025-yil 1-iyuldan fuqarolarga davlat pensiyalari va kompensatsiyalarni tayinlashning quyidagi soddalashtirilgan tartibi joriy etiladi:

fuqarolarga I yoki II guruh nogironlik belgilanganda pensiyalarni alohida murojaat talab etmasdan proaktiv shaklda tayinlanadi. Bunda fuqaroga proaktiv shaklda tayinlangan pensiyani rad qilish huquqi beriladi;

ko‘rish qobiliyati bo‘yicha I guruh nogironligi bo‘lgan shaxslarga hamda yadro poligonlari va boshqa radiatsiya-yadro obyektlarida harbiy xizmatni o‘tagan shaxslarga kompensatsiyalarni elektron ma’lumotlar almashinuvi asosida proaktiv tayinlanadi.

Nogironlik pensiyasi tayinlanganda kamida 1 yil ish stajiga ega bo‘lganda fuqaroning pensiya miqdori har 2 yilda proaktiv shaklda qayta hisoblanadi.

Yana bir pensiya oluvchilarimiz uchun qulaylik 2025-yil 1-oktyabrdan davlat pensiya ta’minotiga oid hamda AT “Xalq banki” tomonidan pensiyalarni naqd pul shaklida to‘lash bilan bog‘liq xizmatlar fuqarolarni biometrik identifikatsiya qilish (Face-ID) hamda ularning imzosini elektron shaklda olish orqali amalga oshiriladi.

Bu yangi mexanizmlar nogironlik pensiyasi va kompensatsiyalarini olish jarayonini soddalashtirib, fuqarolarning huquq va imkoniyatlarini yanada kuchaytiradi.

Doniyorbek TASHMATOV,
Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining Andijon shahar bo’limi bosh mutahassisi.

FIRIBGARLIK JINOYATI VA UNING OQIBATLARI

Bugungi kunda firibgarlik jinoyati jamiyatda eng ko‘p uchraydigan jinoyat turlaridan biri hisoblanadi. Texnologiyalar rivojlanishi, raqamli xizmatlarning kengayishi bu jinoyat shaklining turli ko‘rinishlarda amalga oshishiga zamin yaratmoqda.

Bugungi kunda firibgarlik, aldash va ishonchni suiiste’mol qilish jinoyatlari ko‘payib ketmoqda. Odamlar firibgarlarning gaplariga darrov chuv tushib, aldanib qolmoqdalar.

“Firibgarlik” aldash yoki ishonchni suiiste’mol qilish yo‘li bilan o‘zganing mulkini yoki o‘zganing mulkiy huquqini qo‘lga kiritishdan iborat bo‘ladi. Tashqi tarafdan mulkdor tomonidan mulkni ixtiyoriy ravishda berish yoki begonalashtirish va jinoyatchiga o‘tkazish kuzatiladi.

Aynan aldash yoki ishonchni suiiste’mol qilish mulkdorda yoki mulkning boshqa qonuniy egasida mulkni yoxud mulkiy huquqlarini jinoyatchiga o‘tkazish fikrini tug‘diradi.

Aldash deganda, mol-mulk egasi yoki mol-mulk ishonib topshirilgan shaxsning o‘zi uni firibgarga ixtiyoriy ravishda, o‘z xohishi bilan berishiga erishish maqsadida, jabrlanuvchini chalg‘itish uchun aybdor shaxs tomonidan har qanday faktni buzib ko‘rsatish yoki haqiqatni yashirish yoxud bila turib yolg‘on ma’lumotlarni xabar qilish tushuniladi.

Ishonchni suiiste’mol qilish esa aybdor shaxs tomonidan o‘zganing mulkini qonunga xilof ravishda o‘z foydasiga olish uchun o‘zi va mulk egasi yoxud mulk egaligi ixtiyorida turgan shaxs o‘rtasidagi alohida, o‘zaro ishonchga asoslangan munosabatlardan qonunga xilof ravishda mulkni o‘z foydasiga olish uchun foydalanishi tushunilishi lozim. Odatda, ishonchga asoslangan munosabatlar firibgar va jabrlanuvchi shaxs o‘rtasida prokat, ijara, oldi-sotdi, topshiriq shartnomasi va boshqalarda vujudga kelishi mumkin. Firibgar niyatiga erishish uchun xizmat, qarindoshchilik, do‘stlik munosabatlaridan ham foydalanishi mumkin.

Firibgarlik jinoyati deganda - iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar jumlasiga kirib, jinoyat kodeksining 168-moddasida ushbu jinoyatga ta’rif berilgan. Unga ko‘ra, firibgarlik, ya’ni aldash yoki ishonchni suiiste’mol qilish yo‘li bilan o‘zganing mulkini yoki o‘zganing mulkiga bo‘lgan huquqni qo‘lga kiritish

—bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Firibgarlik:

a) ancha miqdorda;

b) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan bo‘lsa,

—bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan uch yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Firibgarlik:

a) ko‘p miqdorda;

b) takroran yoki xavfli retsidivist tomonidan;

v) xizmat mavqeidan foydalangan holda;

g) axborot tizimidan, shu jumladan axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etilgan bo‘lsa,

—bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan to‘rt yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud muayyan huquqdan mahrum etilgan holda besh yildan sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Firibgarlik:

a) juda ko‘p miqdorda;

b) o‘ta xavfli retsidivist tomonidan;

v) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko‘zlab sodir etilgan bo‘lsa,

—bazaviy hisoblash miqdorining to‘rt yuz baravaridan olti yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki sakkiz yildan o‘n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Yetkazilgan moddiy zararning o‘rni qoplangan taqdirda ozodlikni cheklash va ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qo‘llanilmaydi.

Bu jinoyat turli shakllari soxta hujjatlar orqali mol-mulkni o‘zlashtirish, bank kartalari yoki internet orqali firibgarlik, ishga joylashtirish yoki kredit olishda yolg‘on va’dalar orqali mulk olish. Firibgarlik jinoyatining turlariga:

1. Oddiy firibgarlik – odatda kichik miqdordagi zarar yetkaziladi.

2. Takroran yoki bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilgan firibgarlik – bu holat jinoyatni og‘irlashtiruvchi omillar sifatida ko‘riladi.

3. Yirik miqdorda firibgarlik – juda katta moddiy zarar yetkazilgan hollarda qo‘llaniladi. Firibgarlikning jamiyatga ta’siri - firibgarlik nafaqat alohida shaxsga moddiy zarar yetkazadi, balki jamiyatda ishonchsizlik muhitini keltirib chiqaradi. Ayniqsa, bank tizimi, biznes muhit va elektron savdo sohalarida bu jinoyat obro‘ga va iqtisodiy barqarorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Firibgarlik jinoyati – bu nafaqat qonunni buzish, balki insonlar o‘rtasidagi ishonchni yemiradigan og‘ir jinoyatdir. Uni oldini olish uchun fuqarolar huquqiy savodxonligini oshirishi, shubhali harakatlarga ehtiyotkorlik bilan yondashishi zarur. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar esa firibgarlikka qarshi kurashda qat’iyatli va samarali choralarni ko‘rishi lozim.

Ilhomjon SATVALDIYEV,
Jinoyat ishlari bo‘yicha Oltinko‘l tuman sudi raisi.

МЕРОСХЎРЛАР ДИҚҚАТИГА!

Андижон шаҳрида яшаб, 1982 йил 4 январь куни вафот этган марҳум ЮСУПОВА ЭРКАХОНнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон шаҳри, Миллий тикланиш кўчаси 27-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Т.У.Арзикулов нотариал идорасига,

Андижон шаҳри, Эски Иттифоқ кўчаси, 13-уйда яшаб, 2020 йил 30 май куни вафот этган марҳум РУЗИЕВ ОМОНУЛЛОнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон шаҳри, Мустақиллик шох кўчаси, 6-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Қ.Э.Абдураҳмонов нотариал идорасига,

Хонобод шаҳар, Навоий МФЙ, Нурдиёр кўчаси, 58-уйда яшаб, 2024 йил 16 июль куни вафот этган марҳум JURAYEV KABULJON JUMABAYEVICHнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Хонобод шаҳри, Обод кўчаси, 134-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Н.Зулунов нотариал идорасига,

Андижон туманида яшаб, 2020 йил 11 июнь куни вафот этган JUMABOYEV G’OFURJON ABDURAYIMOVICHнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон тумани, Нўхатак МФЙ, Матбуотчи кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус И.Абдураҳмонов нотариал идорасига,

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2025 йил 23 февраль куни вафот этган марҳум ABDURASHIDOV RAXMATILLO TURSUNOVICH,

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2024 йил 29 июнь куни вафот этган марҳум ASHUROV RAXIMJON URAYIMOVICH,

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2023 йил 12 октябрь куни вафот этган марҳум MADRAXIMOV GOPIRJON XXX,

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2020 йил 24 август куни вафот этган марҳум UMAROV ERGASHALI MAMAJANOVICHнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Жалақудуқ тумани, Ўзбекистон кўчаси, 57-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Ф.Акбаров нотариал идорасига,

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2006 йил 1 ноябрь куни вафот этган марҳум БАШКАРОВ ВАССИ,

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2024 йил 23 март куни вафот этган марҳум TADJIBAYEV KULDASH MAMASALIYEVICH,

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 1989 йил 19 май куни вафот этган марҳум ЮСУПОВ КАРИМЖОН ХХХ,

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2015 йил 5 январь куни вафот этган марҳум YULDASHEV ABDUMUTALIB DJUMABAYEVICHларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Жалақудуқ тумани, Ўзбекистон кўчаси, 57-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Ш.Рахимов нотариал идорасига,

Избоскан тумани, Қашқарлик МФЙ, Нақшбанд кўчасидаги уйда яшаб, 2020 йил 11 март куни вафот этган марҳум AXMADJONOVA BASHORATXON XXX,

Избоскан тумани, Қашқарлик МФЙ, Нақшбанд кўчасидаги уйда яшаб, 2001 йил 8 апрель куни вафот этган марҳум АХМАДЖАНОВ ҒАНИШЕР ХХХ,

Избоскан тумани, Ботиробод МФЙ, Шўрдала кўчасидаги уйда яшаб, 1984 йил 6 июнь куни вафот этган марҳум НОСИРОВ ХАЙИТБОЙ ХХХнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Избоскан тумани, Нақшбанд кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус С.К.Ботиров нотариал идорасига,


Марҳамат тумани, Ўзбекистон МФЙ, Буюк турон кўчасидаги уйда яшаб, 2022 йил 18 февраль куни вафот этган марҳум ОРЗИБОЕВА ТУЛГАНОЙ,

Марҳамат тумани, Кўтарма МФЙ, Баҳор кўчаси, 121-уйда яшаб, 2024 йил 8 ноябрь куни вафот этган марҳум ҚОРАҚЎЗИЕВ БЕГИЖОНнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Марҳамат тумани, Мустақиллик кўчаси, 114-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Б.И.Алиев нотариал идорасига,

Пахтаобод туманидаги уйда яшаб, 2022 йил 27 декабрь куни вафот этган марҳум ҚЎЧҚАРОВ НАБИЖОН,

Пахтаобод туманидаги уйда яшаб, 2025 йил 1 январь куни вафот этган марҳум АТАМИРЗАЕВ ТОШЛАНБОЙ,

Пахтаобод туманидаги уйда яшаб, 2020 йил 22 декабрь куни вафот этган марҳум СУЛАЙМОНОВ МАДАМИНнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Пахтаобод тумани, Муаззинбой МФЙ, Олтин йўл кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Х.А.Рахмонов нотариал идорасига мурожаат қилишлари сўралади.



Bekat

(Hikoya)

Nabi JALOLIDDIN

Bekat. Ustida moviy gumbazi bor. Ixcham shiyponchasining ikki tomonida bittadan jimjimador kichkina do‘kon. O‘ng tomondagisi hozir berk. Chapdagisi esa ochiq. Peshtaxtalari anvoyi shirinligu tamakilarga to‘la. U yerdan so‘zlarini tushunib bo‘lmas zamonaviy qo‘shiq taraladi. Do‘kon ichida o‘tirgan, boshiga qimmatbaho telpak kiygan o‘n sakkiz-yigirma yoshlardagi ozg‘in, rangpar yigitcha og‘zidagi saqichini hafsala bilan chaynaydi, jag‘ining qimirlashini ataylab kuy ohangiga solayotgandek. Chap tarafdagiga do‘konga yaqinroq o‘rnatilgan o‘rindiqda o‘rta yoshlardagi ikki ayol gaplashib o‘tirishibdi. Ularning biri havo iliq bo‘lishiga qaramay, jun ro‘molini qariyb og‘zini ham to‘sar darajada aylantirib o‘rab olgan. Biri esa jun qalpoq kiygan, barralik paltosining ichidan yelkasiga tashlab olgan guldor ro‘moli ko‘ksida ko‘rinib turibdi. Ikkisining ham tizzasida ro‘zg‘orbop sumka bo‘lib, qo‘llarini uning ustiga qo‘yib olishgan. Ularning gaplarini ilg‘ash qiyin, atrofdagilardan andisha qilibmi, sekin-sekin gaplashishadi. Gap orasida bir-birlariga xiyol jilmayib, bekatga kelib to‘xtagan avtobuslarning peshonasidagi raqamiga birrov ko‘z tashlab qo‘yishadi. Aftidan ular yo shoshilishmasdi, yoki ular kutayotgan avtobus juda siyrak yurishini bilganlaridan bemalol o‘tirishardi. Ayollardan o‘ngroqdagi qotmadan kelgan novcha odam hadeb u yoqdan-bu yog‘ga borib keladi. Egnida ohori to‘kilgan palto, boshidagi chuchvaramonand kichkina shlyapasi ham ancha uringan, uning ostidan chiqib turgan o‘siq qora sochlari jingalak bo‘lib, paltosining yoqasi osha yelkasiga qayrilgan. Qo‘lidagi jomadoncha (diplomat) ishlatilaverib eskirganidan oqshayib, yaltirab ketgan. U ko‘zlarini qariyb yerdan uzmay, qisqa qayrilishlar bilan jonsarak borib-kelaveradi. Har zamon-har zamonda yuqoriga ko‘tarilgan nigohi atrofga parishon boqadi, kerakli avtobusning kelishini orziqib kutadi.Bekat shiyponchasidan pastga — avtobuslar to‘xtaydigan yerga tushib olgan savlatdor odamning boshi go‘yo hech qayoqqa burilmaydi. Uning ustida qora charm kurtka, boshida cho‘g‘dek yaltiroq telpak. Bo‘ynidagi qalin yungdor sharf iyaklarini yashirgan. Lo‘ppi, qizg‘ish yuzida hayotga tashnalik butun bo‘y-basti bilan ufurib turibdi. Uning butun borlig‘i oftob nurida go‘yo jilva qilayotgandek tuyuladi. Ikki qo‘li ham charm kurtkasining cho‘ntagida, qorni gavdasiga mutanosib ravishda bo‘rtib chiqqan va gavdasini tik tutmoq niyatida orqaga tashlangan yelkaga mos, jag‘i ham xiyla yuqoriga ko‘tarilgan. U ham kutmoqda, biroq ishonch bilan kutmoqda. Bu ishonch shundayki, oldiga kelib to‘xtayotgan avtobuslardan biroz o‘zini chetga oladi-da, na avtobusning manglayidagi raqamiga e’tibor beradi va na uning ichidagi odamlarga qaraydi, to u yurib ketguncha yo yonboshiga, yo orqasiga butun gavdasi bilan o‘girilib oladi.Chap tarafdan, katta yo‘lning cheti bo‘ylab bir yigit bekatga keldi-da, shiyponchaga chiqmay, pastda to‘xtadi. Har qimirlaganida shildiragan ovoz chiqaradigan kurtkasining oldi ochiq, yalangbosh, sochi kalta qilib taroshlangan. U tinmay pista chaqadi. Ikki barmog‘ida tutgan pistani og‘ziga olib boradi va tishlari orasiga solib, jag‘ini juda tez, xuddi olmaxon yong‘oq yamlaganday bir-ikki qimirlatadi-da, pistaning mag‘zini tomog‘iga yo‘llab, po‘chog‘ini andishasizlarcha purkab tashlaydi. Bu mashg‘ulotini astoydil hafsala bilan bir xil tarzda bajaradi. Pistani chaqarkan, ko‘zlari olma teradi, nimaga nazari tushsa, go‘yo pistaga qo‘shib chaqib yuboradigandek. Yigit sira tek turmasdi — goh yelkasini beo‘xshov silkir, goh qo‘lini u yoq-bu yog‘ga betoqatlarcha qimirlatar, yo boshini, yoki butun gavdasini siltab-siltab aylantirardi.U tinmay pista chaqarkan, avtoulov keladigan tomonga birpas tikilib turdi, so‘ng bekatdagi odamlarga bir-bir qarab chiqdi-da, nigohini qotma odamda to‘xtatdi. Og‘zidagi pista po‘chog‘ini purkab tashlab, o‘ng qo‘lining kafti bilan lablarini artdi.— Akaxon, soatiz nechchi bo‘ldi? — deya so‘radi to‘ng‘illagan ovozda.Qotma odam o‘zi bilan o‘zi ovora borib-kelardi. Yigitning ovozini xayollari orasidan elas-elas eshitdiyu nima deganini anglamadi, to‘g‘rirog‘i, unga gapirayotganini fahmlamadi. Lekin ichki bir tuyg‘u uning nigohini yigitga yo‘naltirdi, yigitning o‘ziga qara turganini ko‘rgach, boyagi gap unga aytilganini ilg‘adi va:— Nima dedingiz? — dedi ingichka, ikkilanishga qorishgan ovoz bilan.Yigit “senda soat nima qiladi?”, deganday og‘zidagi pista po‘chog‘ini qotma odam tarafga zarda bilan purkab, yuzini chetga burdi.Charm kurtkali kishi o‘ng qo‘lining ikki barmog‘i bilan chap yengini biroz surib, soatiga ko‘z tashladi-da, “o‘n ikki yarim”, dedi yigitga qaramay. U o‘zining bu harakati bilan “buni senga emas, shunchaki aytyapman”, deyayotgandek edi. Yigit ham ko‘zining qiri bilan unga bir qarab qo‘ydiyu yana pistasini chaqaverdi.Shu payt ularning oldiga yo‘nalishdagi taksi kelib to‘xtadi. Yigit qo‘lidagi pistani cho‘ntagiga solib, taksi eshigi oldiga keldi. Undan tushayotgan juvon muvozanatini yo‘qotib, yigitga turtinib ketdi.— Ko‘zingizga qaramaysizmi? — dedi yigit o‘dag‘aylab va juvonni chig‘anog‘i (tirsagi) bilan “biru bir” qabilida surib qo‘ydi.— O‘zingiz chetroqda turmaysizmi? — dedi juvon ham do‘q urib. Yigit o‘ng qo‘lining panjalarini yoyib, siltadi.— O‘ch-ey!.. — U taksiga o‘tirishi bilan ulov o‘rnidan jildi.

Juvon “he, basharang qursin!”, deya g‘udrana-g‘udrana o‘z yo‘liga ketdi. Yo‘lak tomondan shiyponchaga kirib kelgan qora to‘nli chol bir odam siqqulik joy qoldirib, ikki ayolning yoniga o‘tirdi. Cholning ixcham oppoq soqoli yuziga ajib tarovat baxsh etar, chehrasidan nur taralayotganga o‘xshardi. — Yo, Olloh! O‘zingga shukur!.. — dedi chol qo‘li bilan soqolini tutamlab chilab qo‘yarkan, entikib. So‘ng ayollarga o‘girilib: — Uchinchi avtobus oblbanisaga boradi-a, qizlarim? — deya so‘radi. — Boradi, ota, boradi, — deyishdi ayollar baravariga. — Ha, xayriyat, — deb qo‘ydi chol o‘zicha. Qotma odam yurishdan to‘xtab, jomadonchasini chap qo‘liga oldi-da, o‘ng qo‘li bilan shosha-pisha cho‘ntaklarini kovlay boshladi. Paltosining ichki cho‘ntagidan g‘ijimlangan “Saraton” tamaki qutisini chiqarib, bir dona sigaret oldi. Qutini yana cho‘ntagiga solib, qaytadan cho‘ntaklarini timirskilay boshladi. Chamasi, u gugurt axtarardi. Lekin topolmadi. Keyin birov ko‘rib qolsa, bir narsa bo‘ladiganday tamakini panjalari orasiga yashirib, atrofga alangladi. Ro‘parada o‘tirgan chol va ayollarga bir bor nazar tashlab, charm kurtkali kishida nigohi to‘xtadi. So‘raymi-so‘ramaymi, deb hadiksiraganday picha qarab turdi. Shu mahal qo‘shiq ohangiga mos tebranib, tutun tortayotgan do‘kondor yigitchaga ko‘zi tushdi. Shoshib do‘kon oldiga borib, qo‘lidagi tamakini og‘ziga yaqinlashtirdi-da, dedi: — Tutatvolay… Yigitcha istar-istamas o‘rnidan qo‘zg‘alib, qo‘lidagi tugay deb qolgan sigaretni unga uzatdi. Qotma o‘z odati bo‘yicha shoshilganidan qo‘llari qaltirab, tamakisini qiynalib tutatdi. Keyin yigitchaning tamakisini qaytarib uzatdi. U esa qo‘li bilan “tashlab yuboravering”, deganday ishora qildi. Qotma og‘zida tamaki, qo‘lidagini tashlash uchun yon-veriga alanglab, axlat idishini qidirdi. Lekin hech qayerda axlat idishi yo‘q edi. O‘shanda hamma yoq tamaki qoldig‘iyu pista po‘chog‘iga to‘lib yotganini ko‘rdi. Shundayam tamakini tashlamay, o‘z o‘rniga qaytdi. Atrofdagilarga zimdan nazar tashlab, qo‘lidagini o‘ng tomondagi bo‘r o‘rindiqning ostiga irg‘itdi va shoshib biroz nari ketdi-da, cho‘zib tutun tortdi. Charm kurtkali kishining oldiga qaymoqrang “Neksiya” kelib to‘xtadi. Undan novcha yigit tushib, jilmaygancha charm kurtkali odam tomonga yurdi. — Iye, ha, aka, bu yerda turib qopsiz? — deya u bilan quchoqlashib ko‘rishdi. — Mashinangiz qani, aka? Charm kurtkali yasama tirjaydi. — Ustadaydi. Bi-ir aylangim keldi-da, — dedi savob ish qilgan mullavachchaday o‘zini kamtarlikka solib. — Yuring, oborib qo‘yaman, — dedi haydovchi mashinasini noqulay joyga to‘xtatganidan shoshilib. Ikkisi apoq-chapoq bo‘lib, “Neksiya”ga o‘tirishdi-da, jo‘nab ketishdi. Ularning ketidan bekatga avtobus kelib to‘xtadi. Gaplashib o‘tirgan ikki ayol birin-ketin avtobusga chiqishdi. Chol ham o‘rnidan turib, betoqatlanib avtobus keladigan tomonga tikildi. Bu orada shiyponchaga qo‘ltiqlashib ikki qiz kirib keldi. Ular yalangbosh edilar. So‘nggi rusumdagi palto kiyishgan, kalta sochlarini oliftalarcha silkib, tinmay xiringlashadi. Nihoyat chol kutgan ulov ham keldi. U tushguvchilarni o‘tkazib yuborib, “yo Olloh!” degancha avtobusga chiqdi. Oradan hech qancha o‘tmay, astobusning eshiklari yopilib, o‘rnidan jildi. Qotma odam ham pastga tushib, u yoqdan-bu yog‘ga yura boshladi. U xuddi avtobusni chaqirayotganday bo‘ynini cho‘zib, uzoqlarga tikildi. Shu asno xiyla turdi-da, betoqatlanib atrofga alangladi. Yaqin o‘rtada boyagi ikki qizdan boshqa odamni ko‘rmagach, ulardan so‘radi: — Soatinglar yo‘qmi, qizlar? Qizlar bir-birlariga birrov qarab olishgach, pastroq bo‘yligi: — Birdan o‘tib qoldi, — dedi va sherigining pinjiga suqilib, birgalashib tag‘in xiringlashdi. Nihoyat qotma kishi kutgan avtobus ham ko‘rindi. U xuddi hozir avtobusga chiqib oladiganday besaranjom harakatga tushdi. Mana, uzun sariq ulov kelib, pishillab to‘xtadi. Unda odam zich edi, eshiklari arang ochildi. Aksiga olib, bir-ikki odam tushdi xolos. Qotma ikkinchi eshikdan endigina chiqmoqchi bo‘luvdi, qayoqdandir yugurib kelgan uch bolakay undan oldin eshikka yopishishdi. Ular jussalari kichik bo‘lganidanmi yoki epchilliklaridanmi, tezdagina avtobusga chiqib olishdi. Ularning ketidan qotma ham suqila boshladi. U avval jomadonini odamlar orasiga itardi, so‘ng o‘zi osildi. Shu payt tepadan kimdir jerkidi: — So‘mkayizi o‘tirganlarga bersayizu, biqinimga botib ketdi. Qotma kishi bir qo‘lida oldidagi odamga osilgan ko‘yi bir qo‘lida jomadonini tepaga ko‘tardi. Chap tomonda o‘tirgan juvon odamlar orasidan uni tortib oldi. — Tillasi yo‘qmi ishqilib? — deb qo‘ydi hazillashib. Qotma kishi endi odamlarga ikki qo‘llab tirmashdi. Eshik bazo‘r yopildi. Lekin paltosining peshini qisib qoldi. Yana qizlarning kulgisi eshitildi. Bu safar ular qattiqroq kulishdi. Avtobus “xayriyat-ey” deganday cho‘zib bir pishilladi-da, kuchanib yurib ketdi. Moviy gumbaz ostiga yana odamlar kela boshladi…

ADOLAT MEZONI

MUASSIS: «Nurafshon gulshani» mas’uliyati cheklangan jamiyati

Muharrir: M.ORTIQOVA

Tahririyat manzili: Andijon shahri, Navoiy shohko‘chasi, 71-uy. Telegram: (+998 99) 995-19-66 E-mail: and_mezoni@inbox.uz

Gazeta Andijon viloyati matbuot va axborot boshqarmasida 2010-yil 16-martda 04-040 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr ko‘rsatkichi - 2536

Gazeta tahrirriyat kompyuter bo‘limida terildi va sahifalandi. «ZAKOVAT» nashriyot uyi MCHJda original maket asosida chop etildi. Chop etishga topshirish vaqti 26.08.2025-yil, soat 11.00. Chop etishga topshirildi 26.08.2025-yil, soat 14.00. Korxona manzili: Kosonsoy shahri, Chorbog‘ ko‘chasi, 17-uy. Hajmi 2 bosma taboq. Qog‘oz bichimi A-3. Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma № . 188 nusxada bosildi.

Navbatchi: M.Mamatqulov. Dizayner: Sirojiddin Mamadali o‘g‘li